

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

TILNING LEKSIK-IFODAVIY QATLAMLARI VA TARJIMA (A.ORIPOV SHE’RIYATI MISOLIDA)

Allambergenov Davronbek

*Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjimashunoslik amaliyotida asliyatdan tilning leksik birliklarini semantik jihatdan to‘g‘ri berish asnosida A.Oripovning qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan “Otalar ilgida zamon bilan vaqt” she’ri tarjimasidagi til xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: she’riy tarjima, so‘z tanlash, grammatik qo‘sishchalar, ekvivalent

Аннотация. В данной статье в практике перевода оригинала используется для семантически корректной передачи лексических единиц языка освещаются лингвистические особенности перевода Ориповым стихотворения “Время со временем по отцовской линии”, переведенного на каракалпакский язык.

Ключевые слова: поэтический перевод, выбор слов, грамматические дополнения, эквивалент

Annotation. In this article, in the practice of translation, originally is used to give the lexical units of the language semantically correctly the linguistic features of Oripov's translation of the poem “time with time in the paternal line”, translated into Karakalpak, are illuminated.

Key words: poetic translation, word choice, grammatical additions, equivalent

She’riy asarlarni tarjima qilish haqida gap ketganda, asl matnning mazmun-mohiyatini, fikrning ifodaviyligi va boshqa jihatlarini qamrab olishda til xususiyatlari hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bilamizki, she’rlarni tarjima qilish juda murakkab jarayon hisoblanadi. She’rning ma’nosini va ohangdorligini saqlagan holda boshqa tilda yetkazish tarjimon zimmasidagi katta mas’uliyat sanaladi. She’rning barcha fonetik va intonatsion shakllari – vazn, ritm va ohang kabilar asarning poetik ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi.

“She’riy tarjimaning eng asosiy vazifasi – yaxshi she’r tarjimada yomon she’rga aylanib qolmasligiga harakat qilish, tarjima mazmunini iloji boricha to‘liq saqlab qolish, she’riy matn shakllarining she’r mazmuniga mos ravishda ham vaznini, ham ohangni saqlab qolish hisoblanadi”. [1:196]

Tarjimada so‘z tanlash muammosi asar yaratuvchilar uchun qanchalik muhim bo‘lsa, badiiy tarjimada yanada katta ahamiyatga ega. Tarjima qilingan asar adekvat bo‘lishi uchun tarjimon muqobil so‘zni tanlash muammosiga duch kelishi, shubhasiz. A.Oripov qalamiga mansub “Otalar ilgida zamon bilan vaqt” she’ri qoraqalpoq tilida “Atalar násilinde zaman menen waqt” shaklida tarjima qilingan. Tarjima qilingan she’rning nomi unda ifodalanmoqchi bo‘lgan ma’noni to‘la-to‘kis aks ettirgan. Tarjimon “ilik” so‘ziga ekvivalent sifatida “nasl” so‘zidan foydalanish orqali ma’no

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

yaqinligiga erishgan. Mazkur she’rning birinchi bandi tarjimasи asliyatni o‘zida to‘liq aks ettirib, ba’zi so‘zlar uchun mos birliklar tanlangan.

Lekin she’rning ikkinchi bandida ayrim xatoliklar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

A.Oripov:

*Sharqona tashbehni olsam gar yodga,
Bir nomi buzurgu bir nomi faqir.
Zaminni kaftida tutib, avlodga
Bus-butun yetkazgan otalar, axir.[2:7]*

P.Mirzabekova tarjimasida:

*Shıǵıstiń táriypin alsam men yadqa,
Bir atı ullı, al bir atı paqır.
Zámiynde alaqanında tutıp, awladqa
Putinley jetkergen atalar, aqır.[3:59]*

Ko‘rinib turibdiki, mazkur bandning ilk misrasi noto‘g‘ri tarjima qilingan. Shoir sharqona tashbehni yodga olishi haqida, ya’ni Sharqda qo‘llaniluvchi ma’lum bir o‘xshatishni nazarda tutgan, lekin she’rning qoraqalpoqcha tarjimasidagi ma’no asliyatdan ancha yiroq ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tarjimon Sharqning ta’rifini yodga olsam degan mazmunda xato tarjima qilgan. Urg‘u faqat sharq so‘ziga qaratilganligi bois, Sharqona tashbeh birikmasi Sharqning ta’rifi shakliga o‘zgargan. Uchinchi misradagi Zaminni kaftida tutib jumlesi qoraqalpoq tiliga zaminda kaftida tutib ma’nosida o‘girilgan. Asliyatdagи tushum kelishigida qo‘llangan Zaminni so‘zi tarjimada o‘rin-payt kelishigidagi Zaminda ko‘rinishida ifodalangan. Vaholanki, she’rning original variantida zaminni, ya’ni yerni kaftida tutish haqida so‘z boradi. Biroq, tarjimaning zaminda kaftida tutish ma’nosida berilishi she’rdagi ikkinchi bandning mazmun-mohiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmagan. Agar “zaminni” so‘zi “zámiynde” emas, balki “zámiyndi” deya tarjima qilinganda misraning ma’nosи konkret ifodalangan bo‘lar edi.

“Muayyan bir tildan ikkinchisiga tarjimalar to‘g‘risida gap borganda , ulardan har birining grammatik o‘ziga xosliklari e’tiborga olinishi kerak”[4:144].

Keyingi bandlar tarjimasida bu kabi xatoliklarni deyarli uchratmaymiz. Faqat to‘rtinchi bandda so‘z qo‘llash bilan bog‘liq kichik kamchiliklar mavjud: “*Non, degen farzandning dardli xitobi*” misrasi “*Nan degen perzenttiń dártli ármani*” shaklida tarjima qilingan. Bunda *xitob* so‘zining *árman* deya berilishi misra ma’nosini asliyatga nisbatan biroz bo‘rttirib yuborgan. She’rning original variantida *xitob* so‘zi chaqiriq, murojaat ma’nosida ishlatilgan. “*Árman*” so‘zi “Qaraqalpaq

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tiliniň túsindırme sózligi”[5:149] lug‘atida ham xitob, chaqiriq ma’nolarida ifodalanishi haqida ko’rsatilmagan.

Ushbu bandning oxirgi misrasi “*Sochlari qirovdek ko ‘pirib chiqqan*” tarjimada “*Shashları qırawday ağarıp shıqqan*” shaklida ifodalangan bo‘lib, tarjimonning she’r badiiyligini saqlashga harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq, asl variantdagи she’rda aytilayotgan ma’no to‘lig‘icha tarjimada chiqmagan. Zotan, “she’rning biror muhim zarrasi o‘zgarishi bilan uning butun ruhi o‘zgacha tus olib ketishi mumkin” [6:31].

Shunday ekan, mumkin qadar har bir so‘zning ma’no qobig‘i, atash ma’nosи, shuningdek, qo‘srimchalarini ham diqqat bilan tushunib, so‘ngra tarjimada muayyan til ichki imkoniyatlari asosida aks ettirish lozim.

Bilamizki, she’riy tarjima jarayonida tarjimon ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi. Bu kabi holatlar tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, mutarjimdan har qanday muammoli vaziyatga yechim topa bilish qobiliyatini talab qiladi. “Asliyatga ijodiy munosabatda bo‘lish tarjimada asosiy ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi”[7:352]

Demak, she’riy asarlarni tarjima qilishda tarjimon asl matnga va tarjima qilingan tildagi imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlashi muhim. Har bir tarjima o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradi va mohir tarjimonlar asl she’rning go‘zalligi va kuchini qayta tiklash uchun til xususiyatlarining umumiy o‘ziga xosliklaridan foydalana bilishi kerak. Asliyatda ifodalangan fikr tarjimada ham to‘la, aniq va ta’sirchan tarzda aks etishi, tarjima o‘zi o‘girilgan til me’yorlariga mos kelishi zarur.

Foydalilaniga adabiyotlar:

1. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi., Toshkent. 2012., – s. 196.
2. Орипов А. Ишонч кўприклари., – Тошкент. 1989., – с. 7.
3. Арипов А. Ағар даря., – Нокис: Билим, 2021., – с. 59.
4. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari., – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – s. 144.
5. Есемуратова Р. Қарақалпақ тилинин тусиндириле сөзлиги I том., – Нөкис. 1982. – с. 149.
6. Саломов F ва бошқ. Таржимон маҳорати., – Тошкент: Фан, 1979., – с. 31.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari., – Toshkent: Fan, 2005. – s. 352.